

## O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.

**Qurbonov Ma'murjon**

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Turizm yo'nalishi 3- kurs talabasi*

**Annotasiya:** *Bugungi kunda turizmning dunyo iqtisodiyotidagi o'rni mustahkamlanib, muhim makroiqtisodiy tarmoqlardan biri sifatida jadal rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda hududlarning turistik imkoniyatlarni aniqlash va turizmning o'ziga xos turlarini tashkil etishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish hamda amaliyotga qo'llash mavzusining dolzarbligini ifodalaydi. Ushbu maqolada O'zbekistonda turizmni rivojlantirish istiqbollari va unga xizmatlar sifatini yaxshilash, turizmning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Turizm, eksport salohiyati, zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari, turizm imkoniyatlari, mahsulot, malakali kadrlar, iqtisodiy munosabatlar, rivojlantirish istiqbollari.*

O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirish, turistik salohiyatdan oqilona foydalanish mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatining rivojlanishiga, valyuta tushumining o'sishiga, eksport tarkibining takomillashuvi va diversifikatsiyalashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu sohada Saudiya Arabistoni tajribasini umumlashtirish xalqaro turizmni quyidagi yo'nalishlarda rivojlantirish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi: - turizm sohasida xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, xalqaro turistik tashkilotlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish, turizm sohasiga xorijiy investitsiyalar va xalqaro kreditlarni jalb qilish bo'yicha keng chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish; - yangi mehmonxonalar, kempinglar, turbazalar, otellar, motellar qurish va mavjudlarini ta'mirlash hamda zamonaviylashtirish hisobiga turizmning xalqaro talablarga javob bera oladigan moddiy-texnika bazasi va zamonaviy xalqaro turizm infratuzilmasini barpo etish va ulardan samarali foydalanish; - aeroportlarda, temiryo'l vokzallarida, avtobus stansiyalarida xalqaro terminallar qurish, ularni ta'mirlash va kengaytirish, shuningdek, barcha turistlarni qabul qilish markazlarida zamonaviy kommunikatsiya tizimlarini barpo etish; - xalq amaliy san'ati, hunarmandchilik, ustaxonalar, an'anaviy milliy buyumlar, suvenirler va turistlar tomonidan talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash; - respublikamizning tabiiy, iqtisodiy va tarixiy salohiyatidan kelib chiqqan holda turizmning turli shakllari — ekskursiya va o'rganish turizmi, arxeologik turizm, rekreatsion turizm, sarguzasht turizmi, ekzotik turizm, ekologik turizm, konferens-turlar, diniy turizm, etnik va nostalgiya turizmini rivojlantirish; - turizm sohasini axborot bilan ta'minlash va turistik biznesda eng yangi texnologiyalardan foydalanish asosida respublikamizning turistik imkoniyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni internet saytlari orqali xorijiy mamlakatlarga tarqatishdir. Turizmning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki eksport uchun ishlab chiqarilgan turistik

mahsulot mamlakat tashqarisiga olib chiqib ketilmaydi balki, shu davlatning o'zida realizatsiya qilinadi. Yaratilgan turistik mahsulot istemolchisining o'zi uni qiziqtiradigan turistik mahsulot uchun uni ajratib turuvchi masofani bosib o'tadi. Respublikada turizmning bugungi kundagi ahvolini tahlili shuni ko'rsatadiki, uning noyob salohiyat va imkoniyatlaridan g'oyatda kam foydalanilmoqda. O'zbekiston xalqaro turizm biznesida ancha orqada qolib ketmoqda. Bunga sabab avvalo shuni respublikamizda turizmning yosh sohalardan biri bo'lganligi, unda malakali kadrlarning yetishmasligi, O'zbekiston turizm va mavjud imkoniyatlari haqida reklama- axborot ishlarining to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, xizmat ko'rsatish turlarining nisbatan kamligi va sifat darajasining pastligi va boshqalar. O'zbekiston ko'xna tarix va madaniyat beshiklaridan biridir. Jahon bozoridagi xizmatlar savdosi singari turizmni ham ko'rinmaydigan eksport deb aytish mumkin. U mamlakat to'lov balansiga mos ravishda o'z ulushini kiritadi. Mintaqada turizmni rivojlanishidan olinadigan iqtisodiy samara turizm industriyasida qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish, aholi bandligini ta'minlash shuningdek mintaqadagi kuchsiz iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishini rag'batlantirishda namoyon bo'ladi. Bizga ma'lumki, turistga tovar va xizmatlar yetkazib berilmaydi, balki turist-iste'molchining o'zi xizmatlar ishlab chiqariladigan va iste'mol qilinadigan joyga yetib keladi. Xizmatlar uchun pul to'lab, turist biron-bir joyga tashrif buyurishdan taassurot olishni xohlaydi, shuning uchun tashrif buyuradigan mamlakatlar tarixiy, ma'daniy, arxitektura, etnografik va boshqa resurslarga ega bo'lishi kerak. Bizning mamlakatimiz esa ana shunday o'zining boy tarixiy-madaniy merosi, noyob moddiy va nomoddiy madaniy qadriyatlari, me'moriy obidalarini bilan jahonda alohida mavqega ega. O'zbekistonda turizm sohasi rivojlanishi uchun barcha sharoit va imkoniyatlar mavjud. Ushbu soha yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi farovonligini oshirish, valyuta va soliq tushumlari ko'payishida muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda mamlakatimizda, turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirishga olib keladigan o'rta muddatli istiqbolda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasiga asosan, shuningdek, 2017-2021-yillarda Konsepsiyani amalga oshirishga doir aniq chora-tadbirlar Dasturini ishlab chiqish rejalashtirilgan. Mazkur vazifaning amalga oshirilishi turizm sohasining tezkor rivojlanishi, uning iqtisodiyotdagi ulushining ortishi, turistik xizmatlar sifatining oshishiga olib keladi. Turizm korxonalar faoliyatida iqtisodiy erkinlikning ta'minlanishi erkin raqobat muhitini shakllantiradi. Bu uchun esa turistik korxonalarda davlat buyurtmasi, uni boshqarishda va nazorat qilishda davlatning aralashuvi kamroq bo'lishi lozim. Bu borada juda ko'p ishlar qilinmoqda. Juda ko'p tadbirlarni tartibga soluvchi normativ hujjatlar, tadbirkorlik subyektlari faoliyatining erkinligini kafolatlovchi bir qancha qonunlar qabul qilindi. Ushbu qonuniy va normativ hujjatlarning hammasi mamlakatimizda raqobat muhitini yaratishga qaratilganligi tufayli barcha sohalar singari turizm sohasida ham erkin raqobat muhiti yaratiladi, bu

bir qancha muhim qonuniyatlarni amalga oshiradi va tartibga soladi. Bular jumlasiga turistik infratuzilmaning yaratilishi, ularning hududlar bo'yicha turistlar tashrifining tashkil qilinishi, ishlab chiqarish va sotish o'rtasidagi mutanosiblikni nazorat qilishi kabilarni kiritish mumkin. E'tirof etish kerakki, O'zbekiston Respublikasida turizm industriyasini xalqaro talablarga mos ravishda rivojlantirish uchun xususiy turistik tashkilotlarning faoliyat doirasini yanada kengaytirish va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'lida muayyan siljishlarga erishilmoqda. Turizm yo'nalishidagi kichik va xususiy biznes sub'ektlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishni ta'minlovchi qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar yaratilib, amaliyotda qo'llanilmoqda. Ayni vaqtda turizmni rivojlantirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

#### XULOSA

O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishdan asosiy maqsad-jamiyat ehtiyojlarini qondirish, xizmat ko'rsatish sifati va hajmini kengaytirilgan holda sohaga bozor iqtisodiyotining dunyo standartlari darajasidagi modeli kirib kelishini ta'minlashdir. Jamiyat ehtiyojini qondirish turistlar talabini ichki va tashqi turizm xizmatlariga aholining ekskursion xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish shu bilan xizmat importi va eksportiga bo'lgan xalqaro talabni o'rganish bilan bog'liqligi masalaning nechog'li muhimligini ko'rsatadi. Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan turizm infratuzilmasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar o'zining ijobiy natijalarini berib kelmoqda. Biroq, murakkab o'tish davri bilan bog'liq talaygina muammolar tufayli bu sohada ham ayrim kamchiliklar mavjud bo'lib bular haqida keyingi mavzularda atroflicha to'xtalib o'tamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdurahmonov K.X. Turizmni boshqarish. Qo'llanma. -T.: nomidagi REU Oliy kasbiy ta'lim federal davlat byudjeti ta'lim muassasasi filiali. G.V. Plexanov Toshkentda, 2013
2. A'zamov S., Toshmurotov T. Xalqaro turizmni boshqarish T.: Toshkent Davlat universiteti, 1996 y.
3. Adilova Z.D, Sodiqov T. Xalqaro turizm biznesi. O'quv qo'llanma. -T.: TDIU, 2010 yil.
4. Adilova Z.D, Allyeva M.T., Norchayev A. Turizm menejmenti. O'quv qo'llanma. -T.: TDIU, 2011.
5. Aliyeva M.T., Umarjonov A. Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti. -T.. Moliya, 2005.